ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati..... 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya..... 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida)..... 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий..... 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him..... 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang..... 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida)..... 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MAVHUM OTLARNING KOGNITIV-SEMANTIK VA DISKURSIV XUSUSIYATLARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YONDASHUVLARI ASOSIDA TAHLIL

Abduraxmonov Xudoynazar Abdirayimovich,
Qarshi davlat texnika universiteti
xorijiy tillar kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Dunyo tilshunosligida abstrakt otlarning o'rganilishi bevosita insonning olamni anglash jarayoni bilan bog'liq holda kechdi. Bu jarayon dastlab so'z va u ifodalaydigan tushuncha orasidagi munosabatni aniqlash bilan bog'liq holda amalga oshirildi. Jumladan, Aristotel omonim hamda sinonimlar misolida tushuncha va uning nomini ajratish zarurligini ta'kidlaydi[1]. Shu bilan birga fikrning rost yoki yolg'on ekanligini unga mavjudlik predikati yuklanmaguncha ma'lum bo'lmasligini qayd etadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, so'z muayyan tushunchani ham, tasavvurni ham ifodalashi mumkin[2]. Chunki tushuncha ham tasavvur ham so'z bilan bog'lanadi. Bu kabi qarashlar falsafadagi ko'zga ko'rinadigan dunyo bilan tasavvur qilish mumkin bo'lgan olam dixotomiyasi asosida shakllangan, deyishimiz mumkin. Bu tilshunoslikda aniq va mavhum otlar haqidagi nazariy qarashlarning shakllanishiga xizmat qildi. Zero, har qanday so'z borliqda mavjud bo'lmagan, ya'ni ko'z bilan ko'rish, ushlash mumkin bo'lmagan, faqat his qilinadigan, tasavvur qilinadigan tushunchalarni yoki sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi predmetlarni ifodalashiga ko'ra farqlanadi. Shu sababli ba'zi tilshunoslar otlardagi aniqlik va mavhumlik dixotomiyasini leksik-semantik kategoriya deb hisoblaydilar[3]. So'z ifodalayotgan tushunchaning mavhumlik yoki aniqlikni belgilab berishi hisobga olinganda, bu fikrga qo'shilish mumkin.

Ot turkumi birliklari har qanday til leksik tizimida salmoqli qismni egallaydi. Chunki borliqdagi narsa-buyum, hodisa, jarayon kabilar aynan shu turkum birliklari orqali ifodalanadi. Fikrimizni til korpuslarida amalga oshirilgan tahlillar asosida ham dalillash mumkin. Masalan, ingliz tilidagi leksemalarning deyarli 37 foizdan ko'p qismi ot turkumiga mansubligi inglizzabon tilshunoslar tomonidan qayd etiladi[4]. Tilshunos R.Xadson ingliz tilidagi matnlarida otlarning boshqa turkumlarga nisbatan salmoqli qismni tashkil etishi haqidagi xulosaga ommabop bo'lgan *Brown Corpus* hamda *Lancaster-Oslo-Bergen (LOB)* korpuslaridagi matnlar tahlil qilish asosida keladi. Albatta, bunday natijalarga bir qarashda ishonish qiyindek, ammo natijalar aniq tahlillarga asoslangan. Ana shu salmoqli qismni band etuvchi turkum tarkibida mavhum otlar ham muhim o'rin tutadi. Umuman, mavhum otlar mohiyati anglanadigan, tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalashi bilan muayyan otlardan ajralib turadi. Inglizzabon tilshunoslar tomonidan ot turkumi birliklari shu jihatdan ham qiziqarli o'rganish obyekti bo'lib kelgan. Quyida dunyo tilshunosligida mavhum otlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Tilshunos V.Kintch mavhum otlarning tushunilishidagi murakkabliklarni tekshirdi. Olimning "Mavhum otlar: obrazlilik leksik murakkabliklarga qarshi" maqolasida mavhum otlarni o'rganish, ularning olamning lisoniy manzarasini aks ettirishida qanday qiyinchiliklar mavjudligini aniqlashga qaratilgan edi[5]. Maqolada mavhum otlar tadqiqida psixolingvistik yondashuvning ahamiyati, ularning tafakkur va xotira bilan bog'liqligi kabi masalalar tahlilga tortildi. Olim tub va yasama mavhum otlarning tushunilishida birmuncha farqlar mavjudligini qayd etadi. Bu, ayniqsa, mavhum bo'lmagan tushunchalarni ifodalovchi

[1] Аристотель. Сочинения в 4 томах. Том 2. – Москва: Мысль, 1978. – С.92. – 688 с.
[2] Акай О.М. Феномен абстрактного существительного // Вестник МГУКИ. 2014. №5(61). – С.269-272.
[3] Kintsch W. Abstract nouns: Imagery versus lexical complexity // Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior. 1972. Vol.11/1. – P.59-65.
[4] Hudson R. About 37% of word-tokens are nouns // Linguistic Society of America. 1994. Vol.70.№2. – P.331-339.
[5] Kintsch W. Abstract nouns: Imagery versus lexical complexity // Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior. 1972. Vol.11/1. – P.59-65.

so‘zlardan yasalgan otlarda yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Masalan, *childhood, friendship, bookishness, scholarship, heartache* kabi leksemalarning asosi muayyan otlarni ifoda etadi. Shu sababli ulardan yasalgan mavhum otlarning tushunilishi oson kechadi. Chunki har qanday so‘z derivatsion qolipda yasalish asosi bo‘lib joylashar ekan, bunda mavhum tushuncha ifodalovchi hosilada ham uning o‘ziga xos “izi” saqlanadi. Shunday ekan, V.Kintch nazariyasiga ko‘ra, mavhum otlarning tushunilishidagi murakkabliklar darajasi ularning tub yoki yasama ekanligiga ko‘ra farqlanadi.

Mavhum tushunchalar va ularni ifodalovchi otlarni kognitiv yondashuv asosida o‘rganish ham yaxshi samara beradi. Mavhum tushunchalarning tafakkurdagi sintezi, ularning inson ongida qayta ishlanishi kabi masalalar tilshunoslarni doimo qiziqtirib kelgan. Odamzod tushunchalarni lisonda aks ettirar ekan, bunda mavhum tushunchalarning tushunilishi masalasi kun tartibiga chiqaveradi. Jumladan, mavhum tushunchalarning ongdagi in’ikosi til egalarining yoshlar kesimida farqalanishi masalasi P.Shvanenflyugek va S.Akinlarning izlanishlarida o‘z aksini topdi[1]. Zero, bolalar, ayniqsa maktabgcaha va boshlang‘ich ta’limda tahsil olish davridagi bolalarning mavhum tushunchalarni tafakkurda qanday qayta ishlaydi hamda bu jarayon yosh ulg‘ayishi bilan qanday tartibda rivojlanib borishi masalasi nihoyatda dolzarb edi. Tilshunoslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ya’ni 9-10 yoshgacha bo‘lgan bolalar leksikasining asosini muayyan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar hosil qiladi. Chunki bunday so‘zlar kichik yoshdagi bolalar uchun tasavvur qilish hamda tushunish nuqtayi nazaridan qulay hisoblanadi. Anglashiladiki, kichik yoshdagi til egalari olamni aniq tushunchalar, ularning tasviri orqali tushunadilar. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarda bunday bog‘liqliklar mavjud bo‘lmaydi. Shu sababli mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarning 9-10 yoshlardan keyingi davrda rivojlana boshlaydi. 10-15 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan leksikografik manbalarda mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar soni ortib boradi. Bu davrda mavhum tushunchalar, ularning leksikada aks etishi, matnlarda qo‘llanishi borasidagi bilimlar shakllangan va rivojlanayotgan bo‘lishi P.Shvanenflyugek va S.Akinlarning izlanishlarida o‘z aksini topadi. Albatta, bu xulosalar aniqligi tajribalar asosida ta’minlanadi. Bunda ikki yosh guruhidagi ishtirokchilardan aniq va mavhum tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarning ma’nosi so‘raladi. Tanlangan so‘zlarning matnlarda qo‘llanish chastotasi ham bir-biridan farq qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar ko‘proq tasavvur qilish, ko‘z oldiga keltirish mumkin bo‘lgan so‘zlarning ma’nosini tushunishsa, katta yoshdagi bolalar aniq otlarni ham, mavhum otlarni ham leksik jihatdan tahlil qila oladilar. Bu kichik maktab yoshidagi bolalar aniqlik xususiyatiga ega bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni oson tushunishi, mavhum otlar mohiyatini anglashda muammolarga duch kelishini ko‘rsatadi. Bularning hammasi mavhum otlar tushunilishida muloqot hamda olamni anglashdagi tajriba talab etilishi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Aslida, bu mavhum otlarga oid tadqiqotlarning aksariyatida ilmiy gipoteza sifatida mavjud bo‘ladi. Tilshunoslarning izlanishlari bu gipotezaning tasdiqlanganligini, ya’ni mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar til egalari leksikasiga muloqot tajribasi hamda olamni anglash darajasining o‘sishi bilan kirib kelishini ko‘rsatdi.

Mavhum otlarning kognitiv xususiyatlari tadqiqi, ta’kidlanganidek, doimo tilshunoslar diqqat markazida turgan. Masalan, tilshunos H-Y.Shmidt ingliz tilidagi abstrakt otlarni konseptual birliklar sifatida tadqiq qildi[2]. Olim o‘zining “English abstract nouns as conceptual shells: from corpus to cognition” (2000) kitobida mavhum otlarning nazariy jihatlari, ularni tadqiq qilish metodoliyasi masalalarini tadqiq qildi. Olim ingliz tilida “shell noun” (konsept darajasiga ko‘tariladigan mavhum otlar) terminining xususiyatlari hamda bu terminning “shell-content” termini bilan aloqadorligi kabi masalalar tahlilga tortilgan edi. Kitobda mavhum tushunchalarni ifodalovchi konseptlarni ajratishda til korpuslarining ahamiyati alohida bo‘limda yoritilgan. Mavhum otlarning guruhlarga ajralishi masalasi esa manbaning ilmiy qiymatini yanada oshirgan. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi konseptlarning nutqda qo‘llanishi, jumladan, ularni qo‘llashdagi faktik, lingvistik hamda mental qo‘llanish xususiyatlari batafsil yoritilgan. Qo‘llanishning har bir turi ichki guruhlarga ajralib ketadi. Masalan, faktik qo‘llanish neytral, sabab-oqibat, qiyosiy, qisman kabi qo‘llanish xususiyatlariga ajraladi. Xuddi shuningdek, lingvistik xususiyatlar predloglar bilan qo‘llanish, emotsional tushunchalarni yetkazish kabilarga ajratiladi. Mental xususiyatlar esa konseptual hamda psixologik jihatlarni qamrab oladi. Kitobning maxsus bobi konseptual mavhum otlarning vazifaviy xususiyatlariga bag‘ishlangan. Bunda vazifaviy xususiyatlar semantik, pragmatik hamda kognitiv vazifalarga ajratilgan. Har qanday til birligida bo‘lgani kabi, mavhum otlarning nutqiy voqelanishida nolisoniy vositalarning

[1] Schwanenflugel P., Akin C. Developmental trends in lexical decisions for abstract and concrete words // Reading Research Quarterly. 1994. Vol.29. No.3 . – P.250-264.

[2] Schmid H.-J. English abstract nouns as conceptual shells: from corpus to cognition. – Berlin – New York: Mouton de Gruyter, 2000. – 468 p.

ta’siri muqarrardir. Shunday ekan, mavhum otlarning o‘ziga xos pragmatik vazifalari ham mavjud. H-Y. Shmidt kitobida mavhum otlarning pragmatik vazifalari tahlilga tortilishi shu jihatdan ham muhim edi. Olim konseptual xususiyatga ega bo‘lgan otlar aniq tushunchalarni ham kognitiv darajaga ko‘tarishini “idea”, “fact”, “news” kabi so‘zlar misolida dalillaydi[1]. Mavhum otlarning har qanday tilda inson ongining eng murakkab qismlarini, ya’ni hissiyotlar, munosabatlar, falsafiy tushunchalar hamda ichki dunyoni aks ettirishi H-Y.Shmidt fikrlarining to‘g‘ri yo‘nalishda ekanligini ko‘rsatadi.

Mavhum tushunchalarni ifodalovchi konseptlarning abstrakt strukturalar bilan ifodalanishi masalasi Memfis universiteti professorlari K.Vimer-Xastings va A.Grasserlar izlanishlarida ham o‘z aksini topdi[2]. Olimlar mavhum tushunchalarni kontekstual shartlangan strukturalar sifatida tadqiq qiladilar. Bunga ko‘ra mavhum strukturalar vaqt va makon bilan bog‘liq holda aniq vaziyatlar asosida yotadi hamda ulardan ajratiladi. Lingvistik jihatdan mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar kontekstda fe’l, predlog kabilar bilan birikma hosil qilganda o‘rganish va tushunish osonlashadi. Umuman, bunday tipdagi izlanishlar mavhum tushunchalarning inson ongida aks etishi, ularning tushunilishiga qanday omillar ta’sir qilishini aniqlashga ko‘maklashadi. Zero, K.Vimer-Xastings va A.Grasserlarning tahlil qilinayotgan maqolalarida fe’llar hamda predloglarning mavhum otlarni aniqlashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Albatta, bu o‘rinda mavhum otlarni “aniqlashtirish” deganda ularni muayyan otlar sirasiga olib o‘tish tushunilmaydi. Shunchaki ularning inson tafakkurida qanday shakllanishi haqida tasavvurlarni aniqlashtirish nazarda tutiladi. Bunda kontekstning o‘rni beqiyos ekanligini hamda uning ta’siri barcha tillarda amal qilishini ta’kidlash lozim. Masalan, “excitement” leksemasi mavhum tushunchani ifodalaydi. Tabiiyki, bu leksema haqida tasavvurning aniqlashishi uchun kontekst talab qilinadi. Xuddi shu so‘zning ma’lum bir kontekstda qo‘llanishi, bunda aniq tushunchlarni ifodalovchi so‘zlardan foydalanish leksema ma’nosining inson tafakkurida muayyanlashishiga xizmat qiladi. Masalan, “trembling with excitement” birikmasida fe’l hamda predlogning qo‘llanishi “excitement” leksemasi mohiyati haqidagi tasavvurni muayyanlashtiradi. Birikma mavhum tushuncha ta’siridagi insonning holati haqida aniq tasavvurni shakllantiriadi. Ta’kidlanganidek, bunday misollarni har qanday tildan topish mumkin. Bu kabi tadqiqotlar mavhum otlarning kognitiv xususiyatlari tadqiqida kontekst hamda korpus materiallaridan foydalanish yaxshi samara berishini dalillaydi. Anglashiladiki, mavhum otlarni kognitiv aspektda tadqiq qilish o‘zbek tilida ham zarurdir.

Mavhum otlarni o‘rganishga kognitiv aspektda yondashuv Kaliforniya universiteti professorlari K.Burges hamda K.Lund kabi olimlarning ishlarida ham o‘z ifodasini topdi[3]. So‘z ma’nosi tilni tushunish tizimining til, kognitiv faoliyat hamda idrok orasidagi munosabatlarda ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu sababli so‘z ma’nosining nutqiy tajriba asosida shakllanishi jarayonini modellashtirish, uning ongda qayta tiklanishi kabilarni tahlil qilish lozim bo‘ladi. Shu sababli tahlil qilinayotgan maqolada mualliflar so‘z ma’nosini aniqlashtirish, muayyanlashtirish masalasini o‘rgandilar. Umuman, maqolada so‘z ma’nolari inson xotirasida, tafakkurida qanday tarzda o‘z aksini topishi hamda bu jarayonning dinamik tarzda rivojlanib borishini tahlilga tortadi. Mualliflar jarayonni aniq tarzda ifodalash uchun HAL (Hyperspace Analogue tu Language) modelini taklif qiladilar. Bu model nihoyatda katta hajmdagi matn korpusidan hamda internet materiallari (taxminan 300 mln.dan ortiq so‘z) qamrab oladi hamda so‘zlarning birikmalarda qo‘llanishi asosida ularning ma’nolarini aniqlash imkonini beradi. Bu so‘z ma’nolarini leksikografik manbalarda berilgan izohidan emas, balki real matnlardan shakllantirish imkonini beradi. HAL modeli an’anaviy semantik modellardan (hierarchical network, feature comparison, semantic differential) farqli ravishda muayyan inson (garchi u tilshunos olim bo‘lsa-da) bahosi va uning ilmiy izlanishlari asosida shakllanmasligi hamda jonli nutqda qo‘llanayotgan real matnlarga asoslanishi bilan ajralib turadi. Natijada, modelda abstrakt tushunchalarni (his-tuyg‘u, ob-havo, jarayon kabilarni) ham nisbatan oson ifodalash mumkin bo‘ladi. Grammatik hamda semantik kategoriyalarni oson ajratish hamda ifodalashda bu muhimdir. Ma’lum bo‘ladiki, K.Burges hamda K.Lundlar tomonidan taklif etilgan model so‘z ma’nolarini inson omili va qo‘lda belgilanadigan xususiyatlarsiz, faqat til tajribasidan kelib kelib chiqqan holda xotirada o‘rinlashishini aks ettiradi. Natijada, bu model semantik xotira, assotsiatsiya, grammatika va mavhum tushunchalarni bir butun sifatida izohlashni ta’minlaydi.

[1] Schmid H.-J. English abstract nouns as conceptual shells: from corpus to cognition. – Berlin – New York: Mouton de Gruyter, 2000. – P.369. – 468 p.

[2] Wiemer-Hastings K., Graesser A. Contextually Representing abstract concepts with Abstract Structures // Proceedings of the Annual Meeting of the Cognitive Science Society. Vol.22(22). 2000.

[3] Burgess C., Lund K. Representing abstract words and emotional connotation in a high-dimensional memory space // Proceedings of the Nineteenth Annual Conference of the Cognitive Science Society. 1997. – P.61-66.

Ingliz tilshunosligida ot turkumiga oid birliklarni umumiy tarzda o‘rganishga qaratilgan izlanishlar ham ko‘plab uchraydi. Bu ingliz tilining global miqyosdagi ahamiyati hamda maqomi bilan ham bevosita bog‘liq. Aynan shu omil asosida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Shuning uchun ot turkumining semantik, sintaktik va morfologik xususiyatlari turli yondashuvlar – kognitiv lingvistika, korpus lingvistikasi va distributiv semantika nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilmoqda. Korpuslarga asoslangan tadqiqotlarda otlarning kontekstdagi chastotasi, kollokatsiyalari va semantik proksimiti ularning ma’no tuzilishini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, “The Cambridge Grammar of the English Language” (2002) kitobining J.Peyne hamda R.Xadlestonlar tomonidan yozilgan “Nouns and noun phrases” qismida ot turkumi va uning grammatik xususiyatlari bayon qilingan[1]. Bu manbada ot turkumining umumiy xususiyatlari, ya’ni morfologik (son (number), kelishik (case), jins (gender) kategoriyalari), sintaktik (gapda bosh so‘z yoki tobe unsur maqomida kelishi) hamda semantik (sanaladigan hamda sanalmaydigan otlar, muayyan yoki mavhum ekanligi) jihatlari haqida ma’lumot berildi. Shuningdek, bu manbada otlarning subkategoriyalari, ya’ni kichik ma’noviy guruhlari haqida ham ma’lumot berilgan. Zero, turkumning ma’noviy guruhlari uning grammatik xususiyatlariga ham bevosita ta’sir qiladi. Masalan, muayyan otlarning birikish va biriktirish imkoniyati mavhum otlarga nisbatan kengroq bo‘ladi. Bu kabi jarayonlarga grammatik xususiyatlarni ochish fonida murojaat qilinadi. Umuman, ot turkumi birliklari hamda ularning ishtirokidagi birikmalar tahlili “The Cambridge Grammar of the English Language” (2002) kitobining muhim qismini tashkil etadi. Chunki ot turkumi ingliz leksikasining asosiy qismini tashkil etadi. Bu turkum birliklarining grammatik xususiyatlarini ochib berish umumiy grammatika haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ma’lum bo‘ladiki, “The Cambridge Grammar of the English Language” kabi manbalarda muayyan so‘zlar guruhining grammatik xususiyatlari umumiy tarzda bayon qilinadi.

Ta’kidalnganidek, muayyan va mavhum otlarni konsept sifatida o‘rganish til egalarining turli yosh kesimida o‘rganilishi inglizzabon tilshunoslarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, N.Karamelli, A.Setti, D.Maurizzi kabi tilshunoslar muayyan va mavhum otlarning maktab yoshidagi bolalarning tafakkurida qanday tarzda shakllanishi masalasini o‘rgandilar[2]. Maqolada muayyan otlarning tushunilishi mavhum otlarga nisbatan soddaroq ekanligi haqidagi an’anaviy fikrlar keltiriladi. “Konsept va tushunchaning hosil bo‘lish bosqichlari, tasnifi va o‘zaro munosabati masalalari – kognitologiya va mantiq fanlarining tadqiq obyekti... Konsept va tushuncha – insoniy bilish va tafakkur mahsuli, so‘z uning voqelanish shakli. Insoniyat, jamiyat, madaniyat va ma’naviyat hamisha rivojlanishda ekan, bu uch unsur ham mutaraqqiy bo‘lib, bir-biriga ta’sir etadi, o‘zgaradi va yangilanadi”[3]. Shu ma’noda tahlilga tortilgan Mavhum tushunchalarning qabul qilinishi yosh o‘sishi (8, 10, 12 yoshlar kesimida) bilan o‘zgarib borishi maqolada dalillangan. Jumladan, 8 yoshda mavhum va muayyan tushunchalarni farqlash ko‘nikmasi shakllanishi, ammo bu yoshda mavhum tushunchalarning assotsiatsiyalari haqida tasavvurlar rivojlanmagan bo‘lishi mualliflar tomonidan isbotlangan. Mavhum konseptlarni tushunish, ularni nutqda qo‘llash ko‘nikmalari 10 yoshda rivojlana boshlaydi hamda 12 yoshga borib katta odamlardagi kabi darajaga ko‘tarilishi maqolada o‘z aksini topgan. Mavhum otlarning inson tafakkurida tushunchalarni akslantirishi masalasi turli yosh kesimida farqlanishi mualliflar tomonidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari orqali dalillangan. Mavhum otlarni bunday yondashuv asosida o‘rganish milliy tilshunosligimizda hanuzgacha kuzatilmagani bu borada jahon tilshunosligidan birmuncha ortda qolayotganligimizni ko‘rsatadi. Bu kabi izlanishlar kognitiv tilshunoslik bilan bolalar psixologiyasining bog‘liqligini ko‘rsatadi hamda shu sohalar kesishgan o‘rinlarini yanada chuqurroq o‘rganish kerakligini asoslaydi.

So‘nggi yillarda tadqiqotlarda ot turkumining pragmatik va diskursiv vazifalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. F.Martenson, M.Xoum, M.Roll kabi olimlar afaziyaning mavhum va muayyan otlarning qabul qilinishiga ta’siri masalasini o‘rgandilar[4]. Ta’kidlanganidek, odatdagi holatda muayyan otlarning tushunilsihi mavhum otlarga nisbatan osonroq kechadi. Afaziya holati (gapira olmaslik, so‘zlash qobiliyatining buzilishi) da ham bu jarayon shunday kechadimi, degan savolning javobini topish bu tahlil qilinayotgan maqolaning maqsadidir. Bu savolning javobini topish

[1] Huddleston R., Pullum K.G. The Cambridge Grammar of the English Language. – New York: Cambridge University Press, 2002. – P.323-525. – 1860 p.

[2] Caramelli N., Setti A., Maurizzi D. Concrete and abstract concepts in school age children // Psychology of Language and Communication. 2004. Vol.8 – P.17-32.

[3] Менглиев Б. “Концепт – тушунча – сўз” занжири ҳақида // Филологик тадқиқотлар: Тил, адабиёт, таълим. 2020. 1(1). – Б.50-54.

[4] Martensson F., Home M., Roll M. Implications of aphasia on abstract and concrete noun processing // Scandiavian Association for Language and Cognition. №2. 2009.

va uni dalillash uchun mualliflar 17 kishidan iborat sinov guruhi bilan ishlaydilar. Bunda 4 nafar ishtirokchi afaziya bilan og‘rigan bemorlar hisoblanadi (2 nafari frontoparietal, 1 nafari temporoparietal, 1 occipital lesions turi bilan og‘rigan bemorlar). Material sifatida 60 ta aniq va 60 ta mavhum otlar tanlab olinadi. Ishtirokchilar test jarayoni otlarning ta’riflari orqali bir nechta muqobillardan birini tanlaydilar. Shundan so‘ng tanlangan muqobilning assotsiatsialari topiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra afaziya guruhida muayyan otlarni aniqlash va ularning birikmalarini topish jarayoni oson kechgan bo‘lsa, sog‘lomlar guruhida mavhum otlarning tushunilishida muammolar kuzatilmagan. Shuningdek, mualliflar guruhlar orasidagi individual natijalarni ham qiyoslaydilar. Jumladan, afaziya guruhida kasallikning *frontoparietal* hamda *temporoparietal lesions* turida mavhum otlarni o‘zlashtirishda nihoyatda past natijalar qayd etilgani holda, muayyan otlarni o‘rganishda muammolar kuzatilmaydi. Afaziyaning *occipital lesions* turida esa mutlaqo teskari natijaga erishiladi. Ya’ni bu guruh bemorlari muayyan otlarning o‘zlashtirilishida muammolarga duch keladilar. Chunki bunday bemorlarda ko‘rish bilan bog‘liq muammolar kuzatiladi. Muayyan otlar ifodalaydigan tushunchalarni idrok etish uchun esa, birinchi navbatda, ko‘rish xususiyati zarur bo‘ladi. Assotsiatsiyalar, ya’ni inson tafakkurida birikmalarning hosil bo‘lishida ham farqlar kuzatiladi. Afaziya guruhi ishtirokchilari mavhum otlarni ko‘proq sifat va fe’llar bilan bog‘liq holda ko‘rsalar, sog‘lom ishtirokchilar guruhi ko‘proq fe’l turkumi birliklari bilan bog‘laydilar. Anglashiladiki, maqola mualliflari afaziyada otlarning tushunilishini neyrokognitiv modellarga asoslangan holda izohlaydilar. F.Martenson, M.Xoum kabi olimlar afaziya bilan og‘rigan bemorlarning og‘zaki nutqni qanday qabul qilishlari haqidagi masalani boshqa ilmiy ishlarida ham tahlilga tortadilar[1]. Bu kabi izlanishlar abstrakt otlarni o‘rganishda lingvokognitiv hamda psixolingvistik yondashuvning nihoyatda muhim husoblanishini ko‘rsatadi.

Mavhum otlarni lingvokognitiv asosda tadqiq qilish ularni ichki guruhlarga ajratish zaruratini kun tartibiga qo‘ydi. Italiyalik olimlar A.Setti hamda N.Kamaelli ishlarida bu masala jiddiy tarzda ilgari surildi[2]. Olimlar mavhum konseptlar (masalan, “freedom”, “justice”, “idea” kabi) muayyan konseptlardan (masalan, “table” kabi) farqli o‘laroq, bitta, chegaralangan hamda idrok etiladigan referantga ega emas, degan fikrga keladilar. Chunki mavhum otlar murakkab holatlar hamda ijtimoiy-falsafiy tushunchalarni ifodalaydi. Uzoq vaqtlar mavhum otlar guruhlarga ajratilmay kelganligini qayd etish lozim. Zero, an’anaviy tadqiqotlarda mavhum otlar muayyan otlarga qarama-qarshi qo‘yiluvchi bir butunlik sifatida qaralgan. Ammo mavhum otlarning geterogenligi, ularning kognitiv tarzda ifodalanishi, xotiraning turli qismlarida saqlanishi, har xil so‘zlar bilan assotsiatsialanishi subkategoriyalarga bo‘linishini dalillaydi. Natijada, italiyalik olimlar ingliz tilidagi mavhum otlarni 4 turga bo‘lish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar:

a) nominal kids (nominal turlar): *democracy, religion* kabi;

b) emotive states (hissiy holatlar): *anger, love* kabi;

d) social relations (ijtimoiy munosabatlar): *friendship, politeness* kabi;

e) philosophical-spiritual (falsafiy-ruhiy holatlar): *value, belief* kabi.

Albatta, mavhum otlarning sanalgan guruhlarini mukammal deb bo‘lmaydi. Ammo bu guruhlar mavhum otlarni tasniflashdagi dastlabki urinishlardan edi. Umuman, tahlil qilinayotgan maqola mavhum otlarni bir butun, ya’ni gomogen hodisa sifatida o‘rganish xato ekanligini ko‘rsatdi.

Ingliz tilining global maqomdagi til ekanligi undagi birliklar tadqiqiga ham shu maqomdan kelib chiqqan holda yondashish kerakligini ko‘rsatdi. Masalan, rus tilshunosi N.V.Xoxlova inglizzabonlar nutqida qo‘llanadigan mavhum otlarni sotsiolingvistik yondashuv asosida o‘rgandi[3]. Bunda tilshunos, birinchi navbatda, falsafa hamda tilshunoslikda mavhumlik tushunchasining umumiy hamda farqli jihatlarini yoritib berdi. Aynan shu ikki fanda mavhumlikning ajratilish omillari belgilandi hamda mavhum otlarning tasnifi ishlab chiqildi. Tadqiqotning muhim yutuqlaridan biri sifatida ijtimoiy guruh tushunchasining xususiyatlari, tilshunoslikda uning ahamiyati hamda Buyuk Britaniyadagi turlari aniqlanganligidadir, deyishimiz mumkin. Mavhum otlarning qo‘llanish chastotasi kabi ma’lumotlar ingliz tili korpuslaridan olinganligi tadqiqotning ishonchliligini oshirgan. Sotsiolingvistik yondashuv asosida jamiyatning turli qatlamlari nutqida qo‘llanadigan mavhum otlarning xususiyatlarini tekshiradi. N.V.Xoxlovaning fikriga ko‘ra, ayollar nutqida mavhum so‘zlar rang-barang maqsadlarda va erkaklar nutqiga nisbatan ko‘proq qo‘llanadi.

[1] Martensson F., Roll M., Apt P., Home M. Modeling the meaning of words: neural correlates of abstract and concrete noun processing // Acta neurobiologiae experimentalis. 2011. Vol.71(4). – P.45-478.

[2] Setti A., Camaelli N. Different domains in abstract concepts // Proceedings of the XXVII Annual Conference of the Cognitive Science Society (Stresa, Italy, 21–23 iyul). – P.1997-2002.

[3] Хохлова Н.В. Абстрактные имена существительные в речи англичан: социолингвистический аспект: Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2015. – 217 с.

Shuningdek, ayollar nutqida hissiyotlar, shaxslararo munosabatlar va xulq-atvorni ifodalovchi mavhum otlardan foydalanadilar, erkaklar esa ko‘proq ish, ijtimoiy hodisalar va shaxsiy xususiyatlarni ifodalashda bunday otlarga murojaat qiladilar. Albatta, keltirilgan natijalar nisbiy hisoblanadi. Ammo korpus materillaridan, ya’ni jonli nutqda qo‘llanadigan matnlarga murojaat qilinganligi hisobga olinganda, bu natijalar haqiqatga ancha yaqin. Zamonaviy tadqiqotlarda korpus materiallaridan foydalanish yaxshi samara berayotganligi isbot talab qilmaydi.

Ona tili ingliz tili bo‘lmagan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar asosan bu tildan chet tili sifatida foydalanish samaradorligiga qaratiladi. A.Ch.Fang va M.Dong kabi tadqiqotchilar mavhum konseptlarning og‘zaki nutqda qanday qo‘llanishi masalasini o‘rgandilar[1]. Maqolada so‘zlovchining nutqiy intensiyasini yetkazishda mavhum otlarning o‘rni masalasiga e’tibor qaratildi. Tadqiqotchilar mavhum otlarning og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llanadigan qismi mavjud ekanligiga e’tibor qaratadilar. Umuman, so‘zlarning faollik darajasi doimo tilshunoslar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Chunki faol qatlamning ajratilishi global maqomdagi barcha tillarda ham mavjud hodisadir. Bunday tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ularda faol qatlamni ajratishga zamin hozirlaydi. Zero, butun leksikani o‘zlashtirish til o‘rganuvchilar uchun doimo murakkablik qiladi. Shuningdek, bunday amaliyot tilni o‘rganish darajasini belgilash uchun ham zarurdir. Shu bilan birga, A.Ch.Fang va M.Dongning tadqiqoti mavhum otlarning og‘zaki nutqdagi faolligini yozma matnlarga nisbatan yuqori ekanligini dalillaydi hamda ularning nutqiy intensiya yetkazishdagi markaziy rolini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilarning korpus tahlillari shuni ko‘rsatdiki, og‘zaki suhbatlarda mavhum otlar muayyan turdagi birikmalarida qo‘llanilib, ma’lumotni ixchamlashtirishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida abstrakt otlarning o‘rganilishi falsafiy va psixolingvistik an’analardan kelib chiqib, insonning olamni anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Aristotel davridan boshlab so‘z bilan ifodalangan tushuncha va tasavvur o‘rtasidagi farqqa e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu aniq va mavhum otlar o‘rtasidagi leksik-semantik dixotomiyani shakllantirishga asos bo‘lgan. Ot turkumi til leksikasining eng katta qismini tashkil etadi va korpus tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida otlar umumiy so‘zlarning asosiy qismini egallaydi, shu jumladan, bunda mavhum otlar muhim o‘rin tutadi. Mavhum otlarning tushunilishi murakkabligi psixolingvistik tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lib, tub otlarga nisbatan yasama otlar (masalan, *childhood, friendship*) osonroq qabul qilinadi. Bolalar psixolingvistikasida esa mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar 9–10 yoshdan keyin faol rivojlana boshlaydi, chunki ular muloqot tajribasi va olamni anglash darajasiga bog‘liq. Kognitiv lingvistikada mavhum otlar konseptual birliklar sifatida ko‘riladi: H.-J.Schmidning “shell noun” tushunchasi orqali ularning korpus asosidagi faktik, lingvistik va mental qo‘llanishi batafsil tasniflangan. Kontekstning ahamiyati K.Viemer-Hastings va A.Graesser ishlarida ta’kidlangan bo‘lib, mavhum otlar fe’l va predloglar bilan birikmada aniqroq tushuniladi. HAL modeli (C. Burgess va K. Lund) esa real matnlar asosida so‘z ma’nolarini dinamik modellashtirib, abstrakt tushunchalarni ifodalashda samarali ekanligini isbotlaydi. Grammatik jihatdan “The Cambridge Grammar of the English Language” mavhum va muayyan otlarning morfologik, sintaktik va semantik farqlarini umumlashtirgan. Yosh psixologiyasi va neyrolingvistik tadqiqotlarda mavhum otlarning qabul qilinishi muayyan otlarga nisbatan qiyinroq ekanligi, afaziya holatida esa bu jarayon kasallik turiga qarab teskari o‘zgarishi aniqlangan. Mavhum otlarning geterogen tabiati A.Setti va N.Kamaelli tomonidan *nominal kinds, emotive states, social relations* va *philosophical-spiritual* kabi guruhlarga ajratilgan.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan N.V.Xoxlova ayollar nutqida hissiyot va shaxslararo munosabatlarni, erkaklar nutqida esa ijtimoiy va kasbiy hodisalarni ifodalovchi mavhum otlar ko‘proq qo‘llanilishini korpus asosida ko‘rsatgan. So‘nggi yillarda A.Ch.Fang va M.Dong tadqiqoti mavhum otlarni (xususan shell nouns) *register-specific diskurs* vositasi sifatida o‘rganib, ularning og‘zaki nutqdagi faolligi yozma matnlarga nisbatan yuqori ekanligini va nutqiy intensiyani ixcham yetkazishda markaziy rol o‘ynashini dalillagan. Umuman olganda, mavhum otlar tadqiqoti til, tafakkur va ong o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni ochib beradi hamda korpus, kognitiv, sotsiolingvistik va pragmatik yondashuvlar orqali ularning ko‘p qirrali xususiyatlari yanada aniqroq namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda chog‘ishtirma aspektda mavhum otlarni o‘rganish turli tizimli tillar vositasida olamni anglash masalasiga yechim bo‘lib xizmat qiladi. Chunki olamni anglash turli qadriyatlar, madaniyatlarga mansub xalqlar orasida farqli bo‘lishi shubhasizdir. Shu jihatdan, mavhum otlar tadqiqida ham chog‘ishtirma aspektga urg‘u berish madaniyatlararo munosabatlarni tartibga solishda muhim hisoblanadi.

[1] Fang A.Ch., Dong M. Shell nouns as register-spexific discource // International Journal of Corpus Linguistics, Volume 26. Issue 2. 2021 – P.219-247.

Rezyume. Maqolada dunyo tilshunosligida mavhum otlarning falsafiy, psixolingvistik, kognitiv va sotsiolingvistik yondashuvlar asosida o‘rganilishi tahlil qilinadi. Korpus tadqiqotlari, yosh va neyrolingvistik tajribalar mavhum tushunchalarning murakkab kognitiv tabiati va kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mavhum otlarning subkategoriyalarga ajratilishi hamda diskursdagi pragmatik vazifalari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishi sifatida asoslanadi.

Resume. The article analyzes the study of abstract nouns in world linguistics based on philosophical, psycholinguistic, cognitive and sociolinguistic approaches. Corpus studies, age and neurolinguistic experiments demonstrate the complex cognitive nature and context-dependence of abstract concepts. The division of abstract nouns into subcategories and their pragmatic functions in discourse are justified as a relevant direction of modern linguistics.

Резюме. В статье анализируется изучение абстрактных существительных в мировой лингвистике на основе философского, психолингвистического, когнитивного и социолингвистического подходов. Корпусные исследования, возрастные и нейролингвистические эксперименты демонстрируют сложную когнитивную природу и контекстную зависимость абстрактных понятий. Разделение абстрактных существительных на подкатегории и их прагматические функции в дискурсе обосновываются как актуальное направление современной лингвистики.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PREDMET-BELGI MA’NOLI AYRIM MORFOLOGIK ORALIQ SO‘ZLARNING QIYOSIY-TARIXIY TAVSIFI

Asadov To‘lqin Hamroyevich,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Har bir til shu xalqning yozuvi va san’ati paydo bo‘lgunga qadar yaratgan eng qadimgi yodgorligidir. Muayyan bir til shu xalqning kelib chiqishi, qarindosh tillari, manzili haqida ishonchli ma’lumot bera oladi. Shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, ona tilimiz ham qadimiy tarixga ega. Bu til, ya’ni qadimgi o‘zbek (turkiy) tili Markaziy Osiyo, Yevroosiyo, Yevropada ham amalda bo‘lgan. Bu tildagi ilk yozma yodgorliklar hozirgi kunga qadar topilgan yodnomalarga ko‘ra miloddan oldingi IV-V asrlarga borib taqaladi.

Mutaxassislarning bayonicha, qadimgi ajdodlarimiz miloddan oldingi III ming yillikning boshi – II ming yillikda markaziy Osiyoning sharqiy qismlari, Oltoy tog‘lari, Orol dengizi bo‘ylari, Dashti qipchoq o‘rmonlari, Turkiston va Uyg‘uriston viloyatlarida istiqomat qilishgan. Turkiy xalqlarning tarixiy an’analari, urf-odatlari, etnik tarixi hamda tili haqidagi ishonchli ma’lumotlar o‘rta asrlarda yaratilgan tarixiy manbalarda, xususan, Xitoy yilnomalarida uchraydi. Jumladan, miloddan oldingi III asrda turkiy xalqlarning Markaziy Osiyoda mustahkam, qudratli davlat tuzgani haqidagi ishonchli dalillar Xitoy manbasi – «Shimoliy sulolalar tarixi» asarida yozib qoldirilgan. Shuningdek, ajdodlarimiz haqidagi ma’lumotlar yunon tarixchisi Gerodotning (mil. oldingi V asr) «Tarix» asarida, arab va fors tili manbalarida, jumladan, XIII asrda yashagan tarixchi olim Rashididdinning «Jome-ut tavorix» asarida uchraydi[1].

XI asr boshlariga kelib ijtimoiy-siyosiy hayot bi-

[1] Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Darslik. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – B. 7-13.